



YURAK QON-TOMIR TIZIMI ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI.

Muallif: Gulboyeva Madinabonu Qaxramonjon qizi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Davolash ishi 25_03 guruh talabasi

Ilmiy rahbar : Marifjonov Jasurbek Mamurjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurak qon-tomir tizimi anatomiyasi va fiziologiyasi ilmiy va psixologik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada siz yurak kameralari, avtomatizm, o'tkazuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, qisqaruvchanlik, yurak kameralaridagi bosim, yurakning sistolik faoliyati, yurakning diastolic faoliyati, yurak faoliyatining boshqarilishi, gemodinamikasi haqida qisqacha tanishib o'tasiz.

Kalit so'zlar; gemodinamika, sistolik bosim, diastolik bosim, simpatik, parasimpatik, bo'lmacha, qorincha.

Kirish.

Yurak qon-tomir kasalliklari butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham keng tarqalgan. Respublikamiz aholisi orasida o'limga olib keluvchi barcha sabablar orasida GK, ateroskleroz va ular bilan bog'liq bo'lgan yurak ishemik kasalligi yetakchi o'rin tutadi. Shu sababli barcha shifokorlar eng avvalo, terapevtlar va umumiy amaliyot vrachlari ushbu guruh kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash, davolash va profilaktika va tamoyillari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lishlari lozim. Yurak kameralari. Yurakning bo'lmachalari va qorinchalari, aorta, o'pka arteriyasi, o'ng bo'lmachaga quyiluvchi yuqori va pastki kovak venalar, chap bo'lmachaga qon olib keluvchi o'pka venalari ko'rsatilgan. Bo'lmacha va qorinchalar bir-biridan atrioventrikulyar qopqoqchalar bilan ajralgan va qorinchalar



sistolasi vaqtida ularning tavaqalari mahkam bekilib, qonning qorinchalardan bo'lmachalarga qaytao'tishiga to'sqinlik qiladi.

Aftomatizm, o'tkazuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik va qisqaruvchanlik yurakning asosiy funksiyalari hisoblanadi.

Aftomatizm-yurakning tashqi ta'sirlarsiz elektr impulslari ishlab chiqarish xususiyatidir. Faqat sinoatrikulyar tugun va bo'lmachalar hamda qorinchalarning o'tkazuvchi tizimi hujayralari bunday xususiyatga ega.

Asosiy qism.

O'tkazuvchanlik- yurak o'tkazuvchi tizimi tolalari orqali impulslarning miokardning qisqaruvchi qismiga qadar yetib borishidir. Impulslar o'ng bo'lmachadagi sinoatrikulyar tugunlar 3 ta (Baxman, Venkebax, Torel) tugunlararo yo'llar orqali atriovebtrikulyar tugunga, bo'lmachalararo Baxman bog'lami yordamida chap bo'lmachalarga tarqaladi.

Qo'zg'aluvchanlik-bu yurak o'tkazuvchi yo'llari va hujayralari va miokardning tashqi impulslar ta'sirida qo'zg'alishidir.

Qisqaruvchanlik- bu yurak mushaklarining qo'zg'aluvchanlikka javoban qisqarishidir.

Yurak kameralaridagi bosim. Yuqorida qayd etilganidek, bo'lmachalar va qorinchalarning birin ketin qisqarishi hamda bo'shashishi yurak bo'shliqlari va magistral tomirlaridagi bosim qonning diastola vaqtida arterial tizimga hamda yurak kameralariga me'yorida otib berish darajasida ta'minlaydi.

Yurakning sistolik faoliyati. Yurakning qon otib berish darajasi uning sistolik faoliyatini harakterlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Yurakning diastolic faoliyati. Yurakning diastolic faoliyati qorinchalarning diastola vaqtida bo'lmachalardan tushayotgan zarur hajmdagi qon miqdorini sig'dira olish qobiliyatidir.

Gemodinamika. Qonning tomirlar orqali harakati gemodinamika qonunlariga bo'ysunadi va arteriya hamda vena tomirlari orasida bosim farqi asosiy harakatga



keltiruvchi kuch hisoblanadi. Balog'atga yetgan kishilarda qonni tomirlarning o'rtasidan oquvchi shaklli elementlari tezroq, uning devorlariga yaqin oquvchi plazmasi esa sekinroq harakat qiladi.

Xulosa;

Xulosa qilib aytganda aynan shu soha fikrlari yurak anatomiya va fiziologiyasi haqida keng qamrovli bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Men ushbu maqolada yurak anatomiyasi va fiziologiyasiga qisqacha to'xtalib ketdim. Yurak kasalliklarini oldini olish, erta aniqlash uchun ham yurakni yaxshiroq bilish va yetuk mutaxasis bo'lish talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Abdig'affor Gadayev. Ichki kasalliklar.
2. Джанашия П.Х. Кардиомиопатин и миокардитыю
3. Gadayev A.G. Umumiy amaliyot vrachlari uchun ma'ruzalar to'plami.
4. Gadayev A.G. Ahmedov X.S. Umumiy amaliyot vrachlari uchun amaliy ko'nikmalar.